

## INNOVATSION EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

## SOCIO-PHILOSOPHICAL BASIS OF FORMING INNOVATIVE ECOLOGICAL THINKING

Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich<sup>1</sup><sup>1</sup>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich

– Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada innovatsion ekologik tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari tadqiq etilgan. Shuningdek, An‘ana va innovatsiyalarni amaliyotga tadbiiq etishda ilmiy xulosalardan foydalanish, ijtimoiy ehtiyotkorlik, milliy an‘analarga ko‘proq e‘tibor berish mutaassiblik va turg‘unlikka, innovatsiyalarga ko‘proq berilish beqarorlik, futurologik taxminlar va boshqaruvning zaiflashuviga oid ilmiy xulosalar berilgan. Global taraqqiyot davomida ekologik muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘layotgan ijtimoiy iqtisodiy sabablar orasida etnogeografik omillar mavjudligi asoslangan. Shuning uchun asosiy e‘tibor, etnosni o‘zi shakllangan tabiiy-atrof muxitda muqim yashashi natijasida yuzaga keladigan ekologik madaniyatining ijtimoiy jihatlarini tadqiq etishga qaratiladi.

**Аннотация**

В статье исследуются социально-философские основы развития инновационного экологического мышления. Также использование научных выводов при внедрении традиций и нововведений, социальная расчетливость, большее внимание к национальным традициям ведет к фанатизму и застою, большее внимание к нововведениям ведет к неустойчивости, футурологическим допущениям и ослаблению управления. Он основан на существовании этногеографических факторов среди социально-экономических причин, вызывающих экологические проблемы в ходе глобального развития. Поэтому основное внимание сосредоточено на исследовании социальных аспектов экологической культуры этноса, являющейся результатом проживания в той природной среде, в которой она формировалась.

**Abstract**

The socio-philosophical foundations of the development of innovative ecological thinking are studied in this article. Also, the use of scientific conclusions in the implementation of traditions and innovations, social prudence, more attention to national traditions leads to bigotry and stagnation, more attention to innovations leads to instability, futurological assumptions and weakening of management. It is based on the existence of ethnogeographical factors among the socio-economic reasons that cause environmental problems during global development. Therefore, the main attention is focused on the research of the social aspects of the ecological culture of the ethnos, which is a result of living in the natural environment in which it was formed.

**Kalit so‘zlar:** innovatsion ekologik tafakkur, innovatsion munosabat, ekologik madaniyat, ekologik ongli faoliyat, ekologik muammolar, oqilonalik, tabiiyat va jamiyat munosabatlari tizimi, ijtimoiy mas‘uliyat, ekologik ong, ijtimoiy ekologiya.

**Ключевые слова:** инновационное экологическое мышление, инновационное отношение, экологическая культура, экологически сознательная деятельность, экологические проблемы, рациональность, система отношений природы и общества, социальная ответственность, экологическое сознание, социальная экология.

**Key words:** innovative ecological thinking, innovative attitude, ecological culture, environmentally conscious activity, ecological problems, rationality, system of nature and society relations, social responsibility, ecological consciousness, social ecology.

**KIRISH**

Etnoslarning landshaft bilan bo‘ladigan o‘zaro aloqasi doimo rivojlanib, takomillashib boradigan tarixiy jarayon bo‘lib, bu jarayonga ta‘sir etadigan omillar ko‘p qirralidir. Bugungi dunyoqarash bo‘yicha rivojlanish jarayonida an‘analalar o‘rnini tizimli o‘zgarishlar, ya‘ni innovatsiyalar egallab boradi.

Tabiatdan foydalanish sohasida asrlar davomida shakllangan, davr sinovlaridan o‘tgan, milliy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan, sharqona shukronalik, ozga qanoat qilish, isrofgarchilikdan, uvoldan qo‘rqish kabi xislatlari bilan uyg‘unlashgan an‘ana, tajriba, ko‘nikma va malakalar ekologik madaniyatning asosini tashkil etadi. Hozirgacha o‘tkazilgan falsafiy tadqiqotlarda bu madaniyatga ko‘proq qatag‘onlik davri va muhitdan kelib chiqib baho berildi. To‘g‘ri, bunday yondashuv ijtimoiy-

iqtisodiy taraqqiyotni aniqroq ifoda etishga ko'maklashadi, texnika va texnologiyani takomillashib borishini kuzatish imkonini beradi. Biroq, mazkur tadqiqotda xalqimizning tabiatdan foydalanish borasida to'plagan an'ana, ko'nikma va malakalariga ekologik madaniyat sifatida baho berishga harakat qilinganligini tasdiqlaydi. Bugungi ekologik va ijtimoiy bilimlar talabi orqali qaralsa, bu oddiylik zahirida yashiringan, ijtimoiy-ekologik muvozanatni saqlovchi ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish madaniyati sifatida ko'rinadi[5]. Bunday ko'nikma, malaka, an'ana va odatlarni insoniyat erishgan zamonaviy ilmiy va texnik yutuqlar, innovatsiyalar bilan boyitish, ijtimoiy taraqqiyotni hisobga olib qayta baholab, hayotga tatbiq etish barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri sifatida qarash zarur.

Ekologik yondashuvda «ona yoki boquvchi» landshaftdan foydalanuvchi xalqlar tomonidan to'plangan tajriba, ko'nikma va malakalarni asrash, ekologik qadriyatlarni avloddan avlodga uzatish, shu xalqning mavjud bo'lishining asosiy sharti ekanligi nazarda tutiladi. O'zbek xalqini o'z ona landshaftlariga munosabatda yuqoridagi shart va tamoyillarga og'ishmay amal qilib kelganliklari xorijlik faylasuf olimlar tomonidan ta'kidlangan. Tabiat va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissi, o'z ishlariga sadoqat bilan yondashishda, «O'rta Osiyoning yarim yovvoyi xalqlari g'arbiy Yevropaning madaniy xalqlaridan ancha ilgari ketganliklari» XIX-asrning 60-yillaridayoq rus olimi N.N.Rayevskiy tomonidan e'tirof etilgan. Bunday xislatlarni tiklash, qayta jonlantirish zarurdir. Bunga erishish yo'llaridan biri sifatida, inson va uning tabiat bilan uyg'unlikda yashashini ta'minlovchi ekologik madaniyatni rivojlantirish taklif etilmoqda.

### ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Etnolandshaft muvozanatini saqlovchi tamoyillar zamonaviy «barqaror rivojlanish» g'oyasiga hamohang ekanligi bilan xarakterlanadi. Ekologik yo'nalishdagi «etnos-landshaft-xo'jalik» aloqalarini tahlil qilishda L.N.Gumilevning «Boquvchi landshaft» haqidagi g'oyasi qishloq xo'jaligi tarmoqlari ustun bo'lgan hududlar uchun mos keladi. Bunday landshaftlarda «Etnos-landshaft-xo'jalik» aloqalari ancha barqaror bo'lib, kamdan-kam hollardagina o'zgarishi bilan ajralib turadi. Ko'p hollarda bunday o'zgarish «landshaft-etnos-xo'jalik» tizimiga boshqa, begona etnoslarning kirishi bilan kuzatiladi[6].

«Etnos-landshaft-xo'jalik» o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro munosabatlar tarixiy kategoriya bo'lib, zamon va makonda o'zgarib turishi faylasuf olimlar tomonidan ta'kidlangan. Jumladan, L.N. Gumilev bunday o'zgarishlar «boquvchi landshaftga» begona etnoslarning kirishi bilan yuz berishini, o'zaro aloqaga kirishayotgan etnoslarning bir-birlari bilan va landshaft bilan aloqasining ijobiy va salbiy bo'lishi, ularning rivojlanish darajasiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Jamiyatshunos olimlar M.G.Levin, N.N.Cheboksarov tomonidan ishlab chiqilgan, B.V.Andrianov tomonidan takomillashtirilgan xo'jalik-madaniy turlar haqidagi ta'limotda esa, tarixiy rivojlanish natijasida bir tur o'rniga yangisi, ikkinchisi kelishi mumkinligi aytiladi.

### MUXOKAMA VA NATIJA

Ekologiya fanida asoslangan, ilmiy jihatlari ishlab chiqilgan hududiy tashkil etishning asosiy tamoyillari ham yuqoridagi kabi *tarixiy* kategoriya bo'lib, zamon talabiga mos ravishda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tartibiga bo'ysungan holda, o'zgarib turadi. Iqtisodiy o'zgarishlar natijasida, hududiy tashkil etish tamoyillari, turlari va shakli ham o'zgarishi mumkin. Bu holat tabiatdan foydalanish jarayonida yana-da aniqroq namoyon bo'lishi, jahon mamlakatlari tajribasida kuzatilgan.

Ko'p asrlik, vaqt sinoviga bardosh bergan, takrorlashlar va yangilanishlar natijasida takomillashib eolog, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha to'plangan ko'nikma va malakalar yig'indisi ya'ni *ekologik madaniyat* avloddan avlodga uzatilib kelinadi. Xalqlarning milliy qadriyatlari darajasiga aylanib ulgurgan bunday madaniyatning unutilishi yoki unga e'tibor bermaslik oqibatida jahonda qator mintaqaviy ekologik muammolar kelib chiqqan. Mazkur muammolarning etnogeografik ildizlari borligini isbotlash uchun, mintaqalarda yuz bergan ekologik muammolar mohiyati va oqibatlarini geoeologik yondashuv asosida o'rganib chiqish maqsadga muvofiq.

O'rta Osiyo kabi qurg'oqchil iqlim sharoitidagi hududlarda tabiiy resurslardan foydalanish sug'oriladigan dehqonchilik bilan uzviy bog'liq. Biroq, bu faoliyat turi har doim ham, kishilik jamiyati kutganidek iqtisodiy rivojlanishga asoslangan farovon hayotga olib kelmagan. Tabiat qonunlariga amal qilmaslik natijasida ekologik falokat, fojearlar ro'y bergan. Shulardan biri qadimgi Bobil (Vavilon)da yuz berdi. Insoniyat tarixida eol mo'jizaning biri bo'lgan «Osma bog'lar» yaratilgan, huquq olami hozirgacha o'rganadigan «Hamurappi qonunlari» yozilgan, Aleksandr Makedonskiy,

## FALSAFA

forslar shohi Kir bosqiniga bardosh bergan, dunyodagi birinchi millioner shahar puxta o'ylanmagan gidrotexnik inshoot sababli yer yuzidan yo'q bo'lib ketganligi ekologik halokatlarga misol bo'ladi.

Eramizdan avvalgi XIX – asrda Sharqiy Arabistondagi Amorelar tomonidan qurilgan “Bob-el” Allohning darvozasi deb e'zozlangan shaharni eramizdan avvalgi 612 yilda Xaldelar qabilasi egallaydi. Eramizdan avvalgi 582 yilda Bobil shohi Navuxodonosor Misr malikasi Nitokrisga uylanadi. Malika Nil daryosiga qurilgan irrigatsiya inshootlarini bu yerda ham qurish orqali sug'oriladigan yerlardan ko'proq foyda olishni taklif qiladi. Natijada, Furot daryosidan suv oluvchi Pallukat kanali qurildi. Oqibatda, Furot daryosi sekin oqadi, yotqiziqalar sug'orish kanallari eolog'oriladigan yerlarni to'ldirdi, kanal oqib o'tgan hududlarda tuproqning sho'rlashishi yuz berdi, dehqonchilik va bog'dorchilik foyda bermay qo'ydi, sug'orish inshootlarini tutib turishga yildan-yilga ko'proq mablag' sarflanadigan bo'ldi. Oqibatda, yirik shahar ham rivojlanayotgan mamlakat ham inqirozga yuz tutdi. Asosiy sabab shohning kelgindi bo'lgani, bu yerni bosib olganida. Agar shox, mahalliy aholidan bo'lganida, ota-bobolari qo'llab kelgan melioratsiya usulini, ekologik madaniyatning afzalliklarini bilardi yoki hamyurtlari bilan maslahatlashardi. Afsuski, shoh Xolde, askarlari arablar, maslahatchilar misrliklar edi. Ularni bosib olgan mamlakatlar ekologiyasi ustida fikrlashga vaqtlari yo'q edi, ko'proq boylik orttirish bosh maqsad edi.

Misrlik irrigatorlar o'z melioratsiya usullarini Nildan Furot daryosiga mehanik holda ko'chirib kelganlar. Nil to'lin suv davrida (Viktoriya, Albett ko'llarida tinib), unumdor il (loyqa) olib keladi, Liviya cho'lida tuproqning sho'rlanish xavfi kam, chunki hududning drenaj holati yaxshi, ortiqcha yer osti suvlari O'rta Yer dengiziga tashlab yuborilgan. Sug'orish ishlarini tashkil qilishdan oldin, joyning geografik, gidrologik, gidrogeologik holati puxta o'rganilgan.

Nil daryosidan farq qilib, Furot daryosi Armaniston tog'ligidan boshlanadi, to'lin suv davrida daryo mayda shag'al va qum zarralarini olib keladi. Shuning uchun ham, Bobilliklar daryoga to'g'on qurmasdan, kichik ariq va charxpalaklarda uning yuza qismidagi suvdan foydalanaganlar. Ortiqcha suvni Dajla daryosi orqali dengizga tashlab yuborganlar. Bu esa, mazkur hududda uzoq vaqt dehqonchilik barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan o'ziga xos «madaniy landshaft» shakllanishiga olib kelgan.

Ta'kidlash lozimki, yuqoridagi kabi holat, XX asrning 50-yillaridan boshlab, Orol dengizi havzasida ham takrorlandi. Sobiq Ittifoq hukumatining qarori bilan 1955 yildan boshlab, paxta ekish Rossiya, Ukraina, Moldova, Gruziya, Armaniston Respublikalarida butunlay tugatilib, asosiy hosilni Orol havzasidan olish uchun yangi yerlarni o'zlashtirish boshlandi. 1965 yilga kelib, bu havzada sug'oriladigan maydonlar 2,8 mln. Gektarga ko'paydi. Qurilgan kanallar va suv omborlari daryolar rejimiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1961 yildan Orol dengizining sathi pasaya boshladi. Mahalliy olimlar va keng jamoatchilikni Orolni ham Kaspiy va Baykal ko'llari kabi qutqarish kerak degan fikrlariga O'rta Osiyo “bilimdoni” hisoblangan olim S.Yu.Geller shunday javob yazdi: «Orol muammosini muhokama qilishda, uni Kaspiyga qiyoslash maqsadga muvofiq emas, chunki suvdan foydalanishdan keladigan iqtisodiy samara turlicha, qolaversa daryo suvi butunlay sug'orishga ishlatilsa, Orol daryosi baliqchilikdan 100 marta ko'p foyda olish mumkin». Shuningdek, bu “olim” Orol tubidan shamol uchiradigan tuzlar ham, O'rta Osiyo va Qozog'istonning sug'oriladigan rayonlari uchun havf tug'dirmasligini “bashorat” qilgan edi[7].

Orolni qutqarish imkoniyatini butunlay qo'ldan berilishiga Rossiyalik injener I.A.Gerardi tomonidan ishlab chiqilgan gidrotexnik inshoot loyihasi sabab bo'ldi. Unga ko'ra, 1976-1980 yillarda «Shimol va Sibir daryolari suvini O'rta Osiyo, Qozog'iston va Volga havzasi daryolariga burish» haqidagi g'oya ilgari surildi. Bu hayoliy inshootni qurish emas, balki, loyiha borligining o'zi Orol fojeasini yaqinlashtirdi, chunki kim Orol taqdiri haqida gapirsa, uning so'zi Sibirdan keladigan hayoliy daryolar suvi bilan berkitildi. Orol fojiasi uzoq vaqt omma nazaridan yashirilib, sir saqlandi. Shu sohani o'rgangan olim O.Komilovning yozishicha; — «Suv xo'jaligi idoralari rahbar kadrlarining mahalliy shart-sharoitni bilmasligi, tajriba va malakasi umuman e'tiborga olinmadi. Chunki, sobiq hukumatga faqat Sovet Ittifoqi manfaatini o'ylaydigan va unga g'amxo'rlik qiladigan kadrlariga zarur edi”.

## XULOSA

Yuqoridagi misollardan, har qanday gidrotexnik inshootlar ham, fojeali oqibatlariga olib kelar ekan deb xulosa chiqarish noto'g'ri. Chunki, Misr, Xitoy, Hindiston, Xorazm kabi dunyo sivilizatsiyasi markazlariga aylangan mintaqalar ham, ming yilliklar davomida sug'orib kelingan va tabiatdan foydalanishning mazkur turi bu hududlarning gullab yashnashiga sabab bo'lgan.

Tarixning guvohlik berishicha, gidrotexnik inshootlar quyidagi xolatlarda ayanchli ijtimoiy-ekologik oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

Birinchi, inshoot qurilish oqibatlari puxta o'ylanmaganda, joyning tabiiy ekologik xususiyatlari har tomonlama keng o'rganilmaganda, yoki ekologik ekspertiza o'tkazilmaganda;

Ikkinchi, tasodifan katta foyda olish maqsad qilib qo'yilganda, bozor iqtisodiyoti tushunchalari bo'yicha investorlarni ushbu hududni ekologik, gidrotexnik holatini o'rganishga mablag' sarflashni xohlamaganida;

Uchinchi, gidrotexnik inshoot qurilishida gigantomaniyaga berilib, joy tabiatiga singib ketmaydigan ulkan inshootlar qurilganda.

Yuqoridagi holatlar bo'yicha qurilgan inshootlar ekologiya fanidagi «eski avtomobil» tamoyili bo'yicha ishlaydi, ya'ni vaqt o'tgan sari inshootni ishlatishga sarflanadigan mablag'lar ortib, undan olinadigan iqtisodiy samara kamayib boraveradi. Bunday inshootlarning hududda bo'lishi nafaqat samarasiz, balki juda hatarli hamdir. Rossiyaning Syano-Shushensk GESi da 2009 yil 17 avgustda yuz bergan, 75 nafar inson hayotiga zomin bo'lgan, Yenisey daryosining 130 km uzunlikdagi qismini transformator moyi bilan ifloslagan fojiali avariyaning ko'rsatish mumkin[8].

Xulosa qilib aytganda, mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan, tabiat bilan uyg'unlikda yaratilgan, uning qonunlariga moslashuvga asoslangan, milliy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan, geografik asosga ega bo'lgan, ekologik madaniyatni mensimaslik, uni butunlay inkor etish yuqoridagi kabi ayanchli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aymatov A. Shaxs tabiatga estetik munosabatini shakllantirishda ekologik ongning roli. (DSc) diss..avtoreferati. Samarqand: 2019. – 29 b. Aymatov A. The role of ecological consciousness in the formation of the aesthetic attitude of a person to nature. (DSc) diss.. author's abstract. Samarkand: 2019. - 29 p.)
2. Qo'lyiyev T. Ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. –Toshkent.:TAQI, 2007 (Koyliyev T. Features of formation and development of ecological culture. -Tashkent.: TAKI, 2007)
3. Hakimov N.H.Inson ekologiyasi. Monografiya. Toshkent, Iqtisodiyot, 2021.B.232. (Hakimov N.H. Human ecology. Monograph. Tashkent, Economy, 2021.B.232.)
4. Malikov T.T. Dialektika formirovaniya aktivnoy jiznennoy pozitsii lichnosti // Obshchestvennyye nauki v Uzbekistane. – 1992. – № 2. – S. 12–17. (Malikov T.T. Dialectic formation of an active life position // Obshchestvennyye nauki v Uzbekistane. – 1992. – No. 2. – P. 12–17.)
5. Mamashakirov S. Urbanizatsiya ekologii ili ekologizirovannaya urbanizatsiya. – Tashkent: Fan, 1991. S. 11–32. (Mamashakirov S. Urbanization ecology and ecologized urbanization. - Tashkent: Science, 1991. P. 11-32.)
6. Bazarov B. Obrazovaniye i ekologicheskaya bezopasnost // Ekologicheskiy vestnik. – 1999. №4. S. 5. (Bazarov B. Education and ecological safety // Ecological vestnik. – 1999. No. 4. S. 5.)
7. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. O'quv qo'llanma. –Toshkent: "Chinor ENK" ekologiknashriyot kompaniyasi. 2006. (Tursunov H.T., Rakhimova T.U. Ecology. Study guide. -Tashkent: "Chinor ENK" ecological publishing company. 2006.)
8. Rasuleva G. S pozitsiy sotsiobiologii. // Ekologicheskiy vestnik. Tashkent-1999. - № 5-b. - S. 31-33. (Rasuleva G. S. positional sociobiology. // Ecological journal. Tashkent-1999. - No. 5 p. - S. 31-33.)
9. <https://kun.uz/news/2019/10/25/uzbekiston-2030-yilgacha-yashil-iqtisodiyotga-otishni-rejalashtirmoqda>
10. <https://lex.uz/docs/4574008> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida farmoni. (<https://lex.uz/docs/4574008> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on approval of the concept of environmental protection of the Republic of Uzbekistan until 2030.)
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va barqarorlik kafolatlari. - Toshkent.: O'zbekiston, 1997.-B.107. (Karimov I.A. Uzbekistan on the threshold of the 21st century: threats to security, conditions for development and guarantees of stability. -Tashkent.: Uzbekistan, 1997.-B.107)
12. Karimov I.A. BMT Sammitining mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisdagi nutq.-Toshkent.: O'zbekiston, 2010. (Karimov I.A. Speech at the plenary session of the UN Summit dedicated to the Millennium Development Goals.-Tashkent.: Uzbekistan, 2010.)
13. Povestki dnya v oblasti ustoychivogo razvitiya na period do 2030 goda //Elektronniy dostup: <http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru>; (The story of the world and the region of sustainable development in the period until 2030 // Electronic friend: <http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru>;) )
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni. <http://lex.uz/pages/getpege>. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. PF-4947 "On the Strategy of Actions for the further development of the Republic of Uzbekistan". <http://lex.uz/pages/getpage>)
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turmanistonning Turkmanboshi shahrida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisidagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2018 yil 25 avgust, № 173 (7131). (Speech of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, at the meeting of the Council of Leaders of the Founding States of the International Fund for Saving the Island, held in Turkmanbashi, Turkmenistan. People's word newspaper, August 25, 2018, No. 173 (7131).)
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Farmoni (Decree No. PF-6024 of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 10, 2020 "On approval of the concept of water management development of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030")